Davlat ramzlari – mustaqilligimiz g‘ururi!

Mashg‘ulotning maqsadi

- O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i, Davlat gerbi va Davlat madhiyasi – mamlakatimizning mustaqilligi, xalqimizning tarixi, milliy qadriyatlari va ezgu intilishlarini ifodalovchi muhim davlat ramzlari ekanligi haqida yoshga mos tushuncha berish;
- Davlat bayrog‘idagi ranglar, yarim oy va yulduzlarning mazmuni, Davlat gerbidagi Humo qushi, quyosh, tog‘lar, daryolar, bug‘doy boshoqlari va g‘o‘za shoxlari kabi timsollar bilan tanishtirish hamda ularning Vatanimiz haqidagi ramziy ma’nosini sodda misollar orqali tushuntirish;
- Davlat ramzlarini bilish va qadrlashni kundalik xulq-atvor bilan bog‘lash: ramzlarni asrash, ularga nisbatan hurmat ko‘rsatish, Vatan tinchligini qadrlash, jamoat joylarida odob saqlash;
- Bayroq nima ekani, uning qadimiy tarixi va O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingani haqida yoshga mos tushuncha berish;
- O‘quvchilarda Vatanga muhabbat, milliy g‘urur, o‘z yurtiga daxldorlik va fuqarolik mas’uliyati tuyg‘ularini shakllantirish.

Kutilayotgan natijalar

- ✓ Davlat bayrog‘i, gerbi va madhiyasining mazmunini o‘z so‘zlari bilan tushuntira olish.
- ✓ Bayroq va gerbdagi ranglar hamda timsollarning ma’nosini bilish.
- ✓ Bayroq nima ekanini va Davlat bayrog‘i 1991-yil 18-noyabrda qabul qilinganini ayta olish.
- ✓ Davlat ramzlariga hurmat ko‘rsatishning kundalik ko‘rinishlarini sanay olish.
- ✓ O‘z fikr va munosabatini og‘zaki hamda ijodiy shakllarda ifodalay olish.

KERAKLI JIHOZLAR

- Elektron doska
- O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i va Davlat gerbi tasvirlari, Davlat ramzlariga oid 1- va 2-videolar
- Davlat madhiyasi audioyozuvi
- 4 ta katta oq qog‘oz
- Rangli qalamlar yoki flomasterlar
- 1–2-sinf uchun bayroq shablonlari (bo‘yash uchun)

Mashg‘ulot ishlanmasi (asosiy bosqichlar)

Vaqt	Bosqich	Faoliyat mazmuni
5 daqiqa	**Diqqatni jalb qilish (“Uch rang siri”)**	O‘quvchilar doskadagi ko‘k, oq, yashil ranglarga qarab, ular nimani anglatishi mumkinligi haqida taxmin qiladilar.
7 daqiqa	**Bayroq haqida suhbat (“Bayrog‘imiz tarixi”)**	Bayroq nima ekani, uning qadimiy tarixi (tug‘) va Davlat bayrog‘i 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingani tushuntiriladi.
4 daqiqa	**1-video namoyishi**	O‘quvchilar 1-videoni diqqat bilan tomosha qiladilar.
5 daqiqa	**1-muhokama**	“Bu videodan qanday xulosa chiqardingiz?”, “Nimalarni bilib oldingiz?” kabi savollarga javob beriladi.
2 daqiqa	**2-video namoyishi**	O‘quvchilar 2-videoni diqqat bilan tomosha qiladilar.
4 daqiqa	**2-muhokama**	Video yuzasidan xulosa chiqariladi, ikkala video taqqoslanadi, ramzlarga hurmat haqida fikr bildiriladi.
12 daqiqa	**Amaliy o‘yin (“Ramzlar mozaikasi”)**	1–2-sinf: bayroq shablonini ranglar tartibida bo‘yash; 3–4-sinf: ramzlardagi bitta timsolni chizib, ma’nosini tushuntirish.
4 daqiqa	**Yakunlovchi qism (Davlat madhiyasini tinglash)**	Davlat madhiyasi tinglanadi, uni tinglashda tutilishi lozim bo‘lgan odob qoidalari eslatiladi.
2 daqiqa	**Uyga vazifa**	Oila a’zolari bilan Davlat bayrog‘i haqida suhbatlashib kelish.
45 daqiqa	**Jami**	Mashg‘ulot davomiyligi

Mashg‘ulotning borishi

5 DAQIQA DIQQATNI JALB QILISH O‘YINI (“Uch rang siri”)

O‘QITUVCHI: Assalomu alaykum, aziz bolajonlar! Bugun sizlarga uchta rangni ko‘rsataman: ko‘k, oq va yashil. Diqqat bilan qarang va ayting-chi, bu ranglarni qayerda ko‘rgansiz?

O‘QUVCHILAR: O‘z taxminlarini aytishadi (osmon, tabiat, bayroq va h.k.).

O‘QITUVCHI: To‘g‘ri fikrlar bo‘ldi! Bu ranglar bizga juda tanish – ular Vatanimiz ramzida jamlangan. Bugun aynan shu haqda – Davlat ramzlari haqida so‘zlashamiz.

7 DAQIQA BAYROQ HAQIDA SUHBAT (“Bayrog‘imiz tarixi”)

O‘QITUVCHI: Bolajonlar, ayting-chi, bayroq nima? U nima uchun kerak?

O‘QUVCHILAR: O‘z fikrlarini aytishadi (bayroq – Vatan belgisi, u maktabda, bayramlarda hilpiraydi va h.k.).

O‘QITUVCHI: To‘g‘ri! Bayroq – davlatning eng muhim ramzlaridan biri. U maxsus ranglar va belgilar tushirilgan matodan iborat bo‘lib, qaysi davlat ekanini bir qarashda tanitadi. Har bir mustaqil davlatning o‘z bayrog‘i bo‘ladi.

O‘QITUVCHI: Bayroq juda qadimdan bor. Ajdodlarimiz uni “tug‘” deb atashgan. Qadimda lashkarlar tug‘ ostida birlashgan, tug‘ xalqning birligi va kuchi belgisi bo‘lgan.

O‘QITUVCHI: 1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston mustaqil davlat deb e’lon qilindi. Oradan ko‘p o‘tmay, 1991-yil 18-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, mustaqil O‘zbekistonning Davlat bayrog‘i tasdiqlandi. Shuning uchun har yili 18-noyabr – Davlat bayrog‘i qabul qilingan kun sifatida nishonlanadi. Bu yil bayrog‘imiz 35 yoshga to‘ladi!

O‘QITUVCHI: *(Doskaga “1991-yil 18-noyabr” sanasini yirik qilib yozadi.)*



O‘QITUVCHI: Endi bayrog‘imiz qanday tuzilganini eslab qolaylik. Bayrog‘imiz to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida, uning uzunligi enidan ikki barobar katta. Unda uchta keng yo‘l bor: yuqorida – ko‘k, o‘rtada – oq, pastda – yashil. Oq yo‘lning ikki chetida ingichka qizil hoshiyalar bor. Ko‘k yo‘lning chap tomonida oq rangli yarim oy va 12 ta yulduz joylashgan: yuqorida 3 ta, o‘rtada 4 ta, pastda 5 ta.

1–2-sinf uchun savollar: Bayrog‘imizda qanday ranglar bor? Yarim oy va yulduzlar qayerda joylashgan? Bayroqda nechta yulduz bor?

3–4-sinf uchun savollar: Bayroq nima? Bayrog‘imiz qachon qabul qilingan? Nega bayroq mustaqillikdan keyin qabul qilindi? Bu yil bayrog‘imiz necha yoshga to‘ladi?

O‘QUVCHILAR: Savollarga javob berishadi.

4 DAQIQA 1-VIDEO NAMOYISHI

O‘QITUVCHI: Aziz bolajonlar, endi 1-video rolikni tomosha qilamiz. Diqqat bilan kuzating!

O‘QUVCHILAR: video rolikni diqqat bilan tomosha qiladilar.

5 DAQIQA 1-MUHOKAMA

O‘QITUVCHI: Video rolikni tomosha qildik. Endi fikrlashamiz:

– Ko‘rganlaringizdan qanday xulosa chiqardingiz?

– Sizga eng ko‘p nima yoqdi?

– Videodan qanday yangi narsalarni bilib oldingiz? (*Shu kabi savollar bilan muhokama davom etadi)*

O‘QITUVCHI: *(1–2-sinf o‘quvchilari videoda ko‘rganlarini 1–2 gap bilan aytadi; 3–4-sinf o‘quvchilari fikrini asoslab, qisqa xulosa chiqaradi.)*

O‘QUVCHILAR: Navbat bilan javob berishadi, o‘z fikrlarini bildirishadi.

2 DAQIQA 2-VIDEO NAMOYISHI

O‘QITUVCHI: Endi 2-videoni tomosha qilamiz. Bu safar ham diqqat bilan kuzating va voqealarni eslab qolishga harakat qiling.

O‘QUVCHILAR: 2-videoni diqqat bilan tomosha qiladilar.

4 DAQIQA 2-MUHOKAMA

O‘QITUVCHI: Qani, 2-video haqida fikrlashamiz:

– Bu videodan qanday xulosa chiqardingiz?

– Videoda ko‘rsatilgan ramzlar bizga nimani eslatadi?

– Sizningcha, nega davlat ramzlarini bilishimiz va hurmat qilishimiz kerak? Siz ularga hurmatni qanday ko‘rsatasiz? (*Shu kabi savollar bilan bilan muhokama davom etadi)*

O‘QITUVCHI: *(1–2-sinf o‘quvchilari qisqa javob beradi yoki rasmda ko‘rsatadi; 3–4-sinf o‘quvchilari ikkala videoni taqqoslab, xulosa chiqaradi.)*
O‘QUVCHILAR: Navbat bilan javob berishadi, o‘z fikr va xulosalarini bildirishadi.
O‘QITUVCHI: Barakalla! Videolarda ko‘rgan Davlat gerbimizni yana bir bor eslaylik. Gerbimiz 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan. Uning markazida qanotlarini keng yoygan Humo qushi tasvirlangan – u baxt va erksevarlik ramzi. Humo ortida quyosh zarrin nurlarini sochib turibdi, pastda tog‘lar, daryolar va gullagan vodiy ko‘rinadi – bular Vatanimizning go‘zal tabiati va boyliklarini ifodalaydi. Gerbning chap tomoni bug‘doy boshoqlaridan, o‘ng tomoni chanoqlari ochilgan g‘o‘za shoxlaridan iborat – bular farovonlik va mehnatkash xalqimiz ramzi. Yuqoridagi sakkizburchak – Respublikamiz hurligining ramzi. Pastdagi lentada esa “O‘zbekiston” so‘zi yozilgan.
O‘QITUVCHI: *(1–2-sinf o‘quvchilari timsollarni rasmda ko‘rsatib nomlaydi; timsollar ma’nosini izohlash asosan 3–4-sinf o‘quvchilaridan so‘raladi.)*

12 DAQIQA AMALIY O‘YIN (“Ramzlar mozaikasi”)

O‘QITUVCHI: Endi 4 ta guruhga bo‘linamiz. Har bir guruhga katta qog‘oz va rangli qalamlar beraman. (Topshiriq sinfga qarab tanlanadi.)
1–2-sinf uchun: “Bayrog‘imni bo‘yayman” – guruhlar tayyor bayroq shablonini ranglar tartibida (ko‘k, oq, yashil, ingichka qizil hoshiyalar) bo‘yaydi, yarim oy va 12 ta yulduzni sanab chiqadi. So‘ng “Bayrog‘imizda … ranglar bor” deb 1–2 gap aytadi.
3–4-sinf uchun: “Ramzlar mozaikasi” – har bir guruh bitta timsolni (bayroq ranglari, yarim oy va 12 ta yulduz, Humo qushi yoki bug‘doy boshoqlari va g‘o‘za shoxlari) chizadi va uning ma’nosini 2–3 gapda tushuntiradi.
O‘QUVCHILAR: 7 daqiqa davomida bayroqni bo‘yaydilar yoki o‘z timsolini chizadilar.
Ishlarni taqdim etish. Har bir guruh o‘z ishini ko‘rsatib, qisqacha gapirib beradi (1–2-sinf – 1–2 gap, 3–4-sinf – 2–3 gap).
O‘QITUVCHI: (Barcha rasmlarni yonma-yon joylashtirib) Qarang, bu kichik bo‘laklarning barchasi birlashib, Davlat ramzlarimiz haqidagi yaxlit tasavvurni – Vatanimiz g‘ururini hosil qiladi!

4 DAQIQA YAKUNLOVCHI QISM (Davlat madhiyasini tinglash)

O‘QITUVCHI: Endi Davlat madhiyamizni tinglaymiz. Madhiya yangraganda qanday turishimiz kerak?

O‘QUVCHILAR: Tik turib, o‘ng qo‘l kaftini ko‘krakning chap tomoniga qo‘yib, jim va hurmat bilan tinglash kerak.

O‘QITUVCHI: To‘g‘ri! Davlat madhiyasi – Vatanimizga bo‘lgan hurmat va sadoqatimizni ifodalovchi tantanali qo‘shiq. (Madhiya tinglanadi yoki uning boshlanishi ijro etiladi.) Bugun biz nimalarni bilib oldik?

O‘QUVCHILAR: Bayroq, gerb va madhiya haqida, ularning ma’nosi haqida gapirib berishadi.

O‘QITUVCHI: Ajoyib! Davlat ramzlari – bizning tariximiz, qadriyatlarimiz va kelajakka bo‘lgan ezgu orzularimizning ifodasi. Ularni bilish va hurmat qilish – har bir fuqaroning burchidir.

2 DAQIQA UYGA VAZIFA

O‘QITUVCHI: Uyga borib, oila a’zolaringiz bilan Davlat bayrog‘i haqida suhbatlashing. 1–2-sinf o‘quvchilari: “Bayroqni ko‘rsangiz nimalarni his qilasiz?”, “Bayrog‘imizni qayerlarda ko‘rgansiz?” deb so‘raydi. 3–4-sinf o‘quvchilari: “Bayroqni ko‘rganda nimalarni his qilasiz? Bayroq siz uchun nimani anglatadi?” deb so‘raydi. Suhbatdan olgan fikrlaringizni keyingi mashg‘ulotga olib keling.

YOSHGA MOSLASHTIRISH

- 1–2-sinf: oiladan eshitilgan fikrni 1–2 gapda aytish yoki rasm bilan ifodalash.
- 3–4-sinf: oiladagi fikrlarni taqqoslash va umumiy xulosani 2–3 gapda bayon qilish.